



## BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTONNING BUXORO XONLIGI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI

**Imomova Marjona Ermahmat qizi**  
*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Boburiylar davrida Hindistonning Buxoro xonligi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari manbalar asosida tahlil qilingan. Tahlil natijalarida ikki yirik davlatning o'rtasidagi elchilik munosabatlarida ko'zga tashlangan iliq diplomatik aloqalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Hindiston, Boburiylar, Buxoro xonligi, Abdurazzoq Samarqandiy, Akbarshoh, elchilik aloqalari, Abdullaxon.*

### KIRISH

Hindiston eng qadim zamonlardan buyon dunyo xaritasining o'z davlatchiligiga ega bo'lgan yirik mamlakatligi barchamizga ma'lum. Ushbu mintaqa asosan shimoli-g'arb tomonidan ya'ni Hindukush tog' tizmalari osha Markaziy Osiyo, xususan Turkiston bilan bevosita aloqada bo'lib kelgan.

Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o'rtasida qadimdan davom etib kelayotgan aloqalar aynan Hindistonda Temuriylar sulolasining davomchilari bo'lgan Boburiylar xukmronlik qilgan davrda o'z cho'qqisiga erishgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boburiylar sulolasi tarixi, ularning geneologiyasi, hukmronlik qilgan davri xronologiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar xorijlik va mamlakatimiz tadqiqodchilari tomonidan chuqur o'rganilgan. Boburiylar sulolasi tarixini o'rganishda xorijlik olimlardan Gaskoy V., Erskin U., Malleson G.B., Richards J.F., Talbot F.J., Kotter L.J., Tripathi R.P., Elfingston M., Magumder R.S. va boshqalar katta hissa qo'shganlar<sup>207</sup>.

Mamlakatimizda Boburiylarning ilmiy merosini o'rganishga Ibrohimov A., Abdug'afurov A., Azimjonova S.A., Boboev H., Vohidov R., Sotimov G', Jalilov S., Fayziev T., Hoshimov I., Nizomiddinov I., Obidov B., Xusanboev O., Qudratullaev H. kabi olimlar o'ziga xos hissa qo'shganlar<sup>208</sup>.

B.Obidov o'zining "Boburiylar davrida Hindiston va Turkiston aloqalari (XVI-XVII asrlar)" asarida Hindiston-Markaziy Osiyo aloqalari aynan Boburiylar hukmronlik qilgan davrda o'z cho'qqisiga yetganligini ta'kidlagan. Shu bilan birga asarda ikki mintaqa o'rtasidagi madaniy yaqinlashuv jarayoni tezlashganligi va har jihatdan bu o'zaro qo'shiluv yangicha ijobiy sintezni vujudga keltirganligini ta'kidlab o'tgan. Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos madaniyati, milliy an'analari, san'ati, adabiyoti

<sup>207</sup> Sharma L.P. Boburiylar saltanati: Ingl. tilidan tarjima. –T.: Ma'naviyat, 1998.-168 b.

<sup>208</sup> Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2000. -80 b; Abdug'afurov A. "Bobur" emas, "Bobur" // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1983; Azimjonova S.A. Sotimov G'. Boburiyzodalar. –T.: Ma'naviyat, 2003. -72 b; Fayziev T. Zahiriddin Muxammad Bobur va uning avlodlari (Boburiylar sulolasining qisqacha shajara tarixi) –T.: Yozuvchi, 1996. -96 b.



ham ikki o'lka xalqlarining aloqalari jarayonida bir-biriga ta'sir qilib, bir-birini boyitganligiga to'xtalib o'tilgan.

### **NATIJALAR**

Bobur vafotidan so'ng bir muddat siyosiy tarqoqlik yuzaga kelgan bo'lsada, Akbarshoh bobosi kabi 13 yoshida davlatni o'z nazoratiga olib, u huddi Boburshoh singari iqtidorli siyosatchi bo'lib shakllandi. U markazlashgan davlatga asos sola oldi va Hindiston yarim orolini birlashtirdi, barqaror siyosiy mustaqil davlatga asos soldi.

Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi siyosiy aloqalar XV–XVII asrlardan e'tiboran diplomatik munosabatlarga asoslanadi.

Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari o'rtasidagi siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalarning rivojlanishida Abdurazzoq Samarqandiyning Hindistonga qilgan safari katta ahamiyat kasb etadi. Atoqli tarixchi, o'z zamonasining buyuk davlat arbobi Abdurazzoq Samarqandiy Amir Temurning o'g'li Eron va Turon hokimi, Shohruh saroyiga yaqin kishilardan bo'lib, ko'pincha elchilik vazifasini o'tgan<sup>209</sup>.

Abdurazzoq Samarqandiy 1442-yilda Hindistonga elchilik safari bilan yuboriladi. U ikki jildidan iborat «Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn nomli asarining ikkinchi jildida Hindistonga qilgan safari haqida hikoya qiladi. U Hirotdan Eron shaharlari va Ummon (Arab dengizi) orqali Hindistonning Kalikut shahriga keladi.<sup>210</sup>

Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida Hindistonning ijtimoiy hayoti, hindlarning urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Safarnoma janubiy Hindiston xalqlarining o'rta asrlarda erishgan iqtisodiy va madaniy darajalari, davlat tuzumi, savdo munosabatlari haqida tarixiy manbalarda uchraydigan muhim daliliy ma'lumotlarga boyligi bilan ham tarix fani uchun juda katta ahamiyatga egadir<sup>211</sup>.

Bu davrning yana nodir manbalaridan «Boburnoma»ning mantiqiy davomi Mirza Muhammad Haydarning Tarixi Rashidiy asaridir. Mazkur asar ikki qism, 117 bobdan iborat bo'lib, unda Qozog'iston, Sharqiy Turkiston (Xitoyning Sinjon viloyati), Afg'oniston, Tibet va Hindiston xalqlari etnografiyasi, jo'g'rofiyasi, ijtimoiy-siyosiy tuzumi va tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Tibet va Hindistonga harbiy yurishlar qilgan Mirza Muhammad Haydar bu o'lkalar haqida foydali ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ayniqsa, uning Kashmir tabiati, iqlimi, urf-odatlari, iqtisodi, tarixiga oid hamda Bobur va boburiylarga tegishli qarashlari diqqatga sazovordir. Mirza Haydarning «Tarixi Rashidiy» kitobi Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» memuar asari singari shaxsan muallifning ko'rganlari va kuzatuvlari zamirida yaratilgan<sup>212</sup>.

<sup>209</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Hindiston safarnomasi. Kirish, tarjima va izohlar muallifi O'rinboev A. T., Fan, 1980. – B.120.

<sup>210</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild. II qism. O'rinboev tarjimasi. T., Fan, 1969. – B.57.

<sup>211</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Hindiston safarnomasi. Forschadan O'rinboev A. tarjimasi. –T., 1960. –B.76.

<sup>212</sup> Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашидий. Введение, пер. с перс. Урунбаева А., Джаловой Р. П., Епифановой Л. П. –Т., 1996. –С.11.



Amerikalik tarixchi olim Richard Fols o'z kitobida Boburiylar siyosatiga shunday tarif beradi "O'sha davrda musulmon dunyosi ko'p jihatdan bir-biriga yaqin edi"<sup>213</sup>. Bu yerda u Islom madaniyatining birlashtiruvchi kuch ekanini ta'kidlaydi. O'sha davr Hindiston madaniyati uchun yot bo'lgan islom madaniyatining yoyilishida Bobur va Boburiylar sulolasi vakillarining o'rnini alohida e'tirof etish o'rinlidir.

Hindistonlik tarixchi olim Ramech Chandra Varma o'zining "Akbar and Abdulla Khan" ("Akbar va Abdullaxon"). asarida Turkiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlarni Akbarshoh davrida rivojlanish cho'qqisiga chiqqanini, Abdullaxon elchisi Oltamish Akbar huzuriga kelganini va shu elchi orqali Akbarshoh Abdullaxon bilan do'stlik munosabatini o'rnatishga rozi ekanini bildiradi<sup>214</sup>.

Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida bir-birlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yдилar. Buning asosini Markaziy Osiyoning juda qulay jug'rofiy mavqega ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo orqali Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, jumladan, Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasida savdo aloqalari keng ko'lamda rivoj topdi.

Boburiylar davrining dastlabki me'morchilik va tasviriy san'at na'munalarida temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan davr san'atiga xos an'analarni ko'rish mumkin.

XVI asr ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va Hindistonda nisbatan kuchli markazlashgan davlatlar vujudga keldi. Boburiy Akbarshoh (1556–1605) taxtga chiqishi bilan deyarli bir vaqtda Buxorodagi hokimiyat Shayboniylar sulolasining so'nggi hukmdori Abdullaxon (1557–1598) qo'liga o'tdi.

Akbarshoh davrida Boburiylar imperiyasi shimolda Tibet chegaralaridan tortib, janubda Todavari daryosi, g'arbda Gujorattan to'g'ri sharqda Bengal ko'rfazigacha yoyildi.

Abdullaxon podsholigi vaqtida Buxoro xonligi ham katta hududni Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Xurosongacha bo'lgan yerlarni birlashtirib, harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlatga aylandi.

Abdullaxon va Akbar taxtni egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga, mustaqil va yarim mustaqil xon va knyazliklarni bo'ysundirishga, yangidan-yangi o'lkalarni bosib olishga kirishdilar. Abdullaxon qattiq kurash natijasida Balx va Hirotni (1573), Shahrisabz, Qarshi va Hisorni (1574), shu yillari Akbar Malva, Gondvan, Chitor va Gujaratni zabt etdi. O'sha davrda ikkala davlat o'rtasida bir qator diplomatik almashinuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, Abdullaxon 1572-73, 1577-78 va 1586-yillarda Hindistonga elchilar yubordi<sup>215</sup>.

Shu asnoda Buxoro xoni Hindistonga obro'li amaldorlardan Mir Quraysh rahbarligida elchilar jo'natdi. U o'zi bilan sovg'a sifatida bir qancha nafis mollar olib borgan edi. Elchilarning asosiy vazifasi Badaxshon Buxoroga qo'shib olingandan so'ng Akbarni Buxoro xonligiga munosabatini bilish bo'lgan. Akbar Mir Quraysh elchilarni uzoq vaqt qabul qilmaydi, tarixchi olimlarning ta'riflashlaricha, Akbar Kashmirni o'z

<sup>213</sup> Richard C.Foltz. Mughal India and Central Asia. Oxford, 1998. -P. 23.

<sup>214</sup> Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture", Vol. XXI, №2, 1947, Hyderabad, -P.330.

<sup>215</sup> Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. Фан. Тош., 1985. –С.53



davlatiga qo'shib olgandan so'ng elchilarni qabul qilmoqchi edi. Shunday qilib, Akbar Buxoro elchilarini 1586-yili 14-mart kunida qabul qiladi. Akbar hukmronligining 30 yilligi (ya'ni 1586-yil) da Hindistonning O'rta Osiyodagi rasmiy kishisi Muhammad Hakim Hindistonga Mirzo Shohruh va Mirzo Sulaymon boshliq elchilarni yuboradi. 1587-yilda esa Markaziy Osiyodan Akbar saroyiga Mir Quraysh boshliq rasmiy elchilar yuboriladi. Elchilar Hindiston chegarasiga yetib kelganlarida chegara ma'murlari ularni samimiy kutib oladi. U yerdan elchilar Hind qurolli qismlari himoyasida Dehliga yetib keldilar. Do'stlik safari bilan Hindistonga kelgan Markaziy Osiyolik elchilar Dehlida bir qancha oy turib, Akbar tomonidan Abdullaxon saroyiga tayinlangan Hakim Humom boshliq Hind elchilari bilan o'z Vatanlariga qaytadilar. Hind elchilari Akbarning Abdullaxon nomiga yozgan xatini va bir lakx (yuz ming) rupiy tanga va boshqa qimmatbaho zebu ziynatlardan iborat tuhfalarni olib keldilar. Akbar Abdullaxonga yozgan xatida Eron shohi Abbosga qarshi birga kurashish kerakligi, o'z mamlakatlari orasida do'stlik munosabatlarini o'rnatish zarurligi to'g'riida yozadi. Hind elchilarini Abdullaxon hind odati bo'yicha qabul qiladi. Elchilar Markaziy Osiyoda ikki yilga yaqin bo'ladilar, so'ngra katta tuhfa va tortiqlar bilan Hindistonga qaytib ketadilar.

1590-yili Mavlono Husayn boshliq Abdullaxonning yangi elchisi ham Akbar huzuriga safar bilan tashrif buyurgan.

1596-yili Xoji Ashraf Naqshband va Sulton Husayn Lakxnav boshliq Akbarshoh elchilari Buxoro tomon yo'lga chiqadilar. Elchilar Abdullaxonga Akbarshohning katta sovg'a-salomlari bilan o'zaro do'stlikni mustahkamlashni ta'kidlovchi maktub ham olib kelgan edi. Akbarshoh elchilari 1597-yil 9-sentabrda Buxoroga yetib keladilar. Abdullaxon ularni katta izzat-ikrom bilan kutib oladi. Akbardan keyingi imperator Jahongirni (1605-1627) taxtga o'tirgani bilan tabriklash uchun Imomqulixon (1611-1642) Jahongir saroyiga elchi yuboradi. Bunga javoban Hindistondan Markaziy Osiyoga zamonasining atoqli olimi Hakim Hoziq boshliq elchilar keladi. Elchilar o'zlari bilan qimmatli sovg'alar qo'shib jo'natiladilar. Sovg'alar orasida qimmatbaho toshlar qadalgan chodir kishining diqqatini o'ziga tortar edi. Aytishlaricha, bu chodir unga qadalgan oltin va qimmatbaho toshlarning narxi butun Hindistondan yig'ilgan bir yillik xiroj solig'iga barobar edi<sup>216</sup>.

### MUHOKAMA

Boburiy sultonlar Hindistonda o'z faoliyatlari davomida (davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda va hokazolarda) ko'pincha Temuriylar davridagi qonun-qoidalar, an'analar, rasm-rusumlarga amal qilganlar.

Boburning siyosiy qarashlarida markaziy o'rinni davlat va davlat boshqaruvi egallaydi.

Bobur davlatlar haqida fikr yuritar ekan, ularni ikki turga ajratgan:

1. Adolatli, markazlashgan davlat;
2. Adolatsiz tarqoq davlat.

<sup>216</sup> Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxon (ruschaga Semenov A.A. tarjima qilgan). – T., 1956. –B. 89.



Boburiylar tashqi siyosatini tadqiq etar ekanmiz, bu sulolaga mansub hukumdorlar haqida so'z borar ekan, ular Turkistonni o'zlarining ona yurtlari va Temuriylardan meros qolgan hudud deb qarashlari ularni ikki asr ya'ni Hindistonda musulmonlar hukumronlik qilgan, eng diqqatga sazovor davrda davlatni boshqargan birinchi olti Boburiy, ularni ko'pchiligi Turkistonni ko'rmagan bo'lsada, "ona" yurti deb bilib mustahkam aloqalarni o'rnatib kelganliklarini ko'rishimiz mumkin<sup>217</sup>.

Turkiston va Hindistondagi boburiylar imperiyasi o'rtasidagi siyosiy diplomatiyani tahlil etar ekanmiz, bu aloqalar ko'proq ikki tomonning safaviylar sulolasi hukumronlik qilgan Eronga qarshi kurashda ittifoq tuzish rejasini amalga oshirishni ko'zlab olib borganini tahmin qilish mumkin. Bu borada uchchala tomon ham muayyan manfaatlarni ko'zlab, ya'ni o'z chegaralariga yaqin hududlarni, xususan Xuroson va hozirgi Afg'oniston yerlari ustidan nazorat o'rnatish uchun kurash olib borganligini ko'rishimiz mumkin<sup>218</sup>.

Buxoro bilan Hindiston o'rtasida doimiy savdo-sotiq shu ishga mutasaddi bo'lgan maxsus savdogarlar orqali ham amalga oshirilgan va bunday shaxslarga juda katta huquq berilgan. Chunonchi, Hindiston podshohi tomonidan Buxorolik savdogar Oxund Xo'ja Avaz va uning sheriklariga berilgan yorliqda Shoh Jahon mazkur savdogarlarga o'z muruvvati va marhamatini ko'rsatadi va hech kimsa uni Hindistonga kelganida va ketganida unga jabr-sitam ko'rsatmaydi va biror vajdan ularni ushlab qolmaydi deb aytilgandi<sup>219</sup>.

Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi karvon yo'lini rivoj topishi bilan Buxoro shahrida alohida hind mahallalari ham bunyod bo'lgan. Jumladan, tarixchi Muhammad Yusufning yozishicha, Buxoroda hindlarning mahalla oqsoqoli ham mavjud bo'lgan<sup>220</sup>. Bu yerdagi hindlar savdo-sotiq faoliyati bilan ham shug'ullanganlar.

Buxorodagi Olamxona karvonsaroyida asosan Hindistonning Shikarpur shahridan kelgan hindlar joylashardi deb yozib o'tgan.

XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab Hindistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida Boburiylarning roli kuchaydi.

Bobur Hindistonga bir olim sifatida yoki yirik davlatning elchisi sifatida keldi. U o'z siyosatini barpo qilish uchun Afg'oniston, so'ngra Hindiston tuprog'iga qadam qo'ygan.

## XULOSA

Xulosa o'rnida, Boburiylar olib borgan tashqi siyosat dunyo sharqshunos va tarixchi olimlari tamonidan o'rganilishi davom etmoqda. Yuqorida qayt etganidek, Boburiylar tashqi siyosatining ko'p jihatlari tadqiq etilgan va ular olib borgan tashqi siyosat o'zining ayrim xususiyatlari bilan taqsiq loyiqdir. Boburiylar tashqi va ichki siyosatida Islom omili muhim ahamiyat kasb etadi. Ular Islom diniga va

<sup>217</sup> O'zbekiston diplomatiyasi tarixidan, tarixiy ocherklar va lavhalar. –T.:JIDU, 2003. –B.105.

<sup>218</sup> Семёнов А.А. “К вопросу о культурно-политических связях Бухары и Великомонгольской Индии в в. Материалы 2-го совещания археологов и этнографов Средней Азии. Изд-во АН СССР, М. 1959. –С.153.

<sup>219</sup> Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. – Л., 1932. –С. 138-139.

<sup>220</sup> Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история. –Т.: Изд. АН УзССР, 1956. –С. 84-85.



musulmonlarga o'zgacha hurmat bilan qaraganlar. Islom diniga bo'lgan kuchli sinmas e'tiqodi sababli ular Eronga qulay fursat tug'ilganda ham yurish qilmadilar, bu esa ularni naqadar kuchli e'tiqodidan, mohir diplomatligidan dalolat berganligini ko'rishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharma L.P. Boburiylar saltanati: Ingl. tilidan tarjima. –T.: Ma'naviyat, 1998.-168 b.
2. Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2000. -80 b
3. Abdurazzoq Samarqandiy. Hindiston safarnomasi. Kirish, tarjima va izohlar muallifi O'rinboev A. T., Fan, 1980. –B.120.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild. II qism. O'rinboev tarjimasi. T., Fan, 1969. –B.57.
5. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашидий. Введение, пер. с перс. Урунбаева А., Джаловой Р П., Епифановой Л П. –Т., 1996. –S.11.
6. Richard C.Foltz. Mughal India and Central Asia. Oxford, 1998. -P. 23.
7. Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture", Vol. XXI, №2, 1947, Hyderabad, -P.330.
8. Аҳмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии ХВИ-ХВИИвв Фан. Тош., 1985. –С.53
9. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoni (ruschaga Semenov A.A. tarjima qilgan). – Т., 1956. –В. 89.
10. O'zbekiston diplomatiyasi tarixidan, tarixiy ocherklar va lavhalar. – Т.:JIDU, 2003. –В.105.
11. Семёнов А.А. "К вопросу о культурно-политических связях Бухары и Великомонгольской Индии в в. Материалы 2-го совещания археологов и этнографов Средней Азии. Изд-во АН СССР, М. 1959. –С.153.
12. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. – Л., 1932. –С. 138-139.
13. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история. –Т.: Изд. АН УзССР, 1956. –С. 84-85.